



BESH TASHABBUS — BOSH TASHABBUS



Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish.



Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish.



Aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish.



Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish.



Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash.

KITOB — BILIM BULOG'I

QALB VA TAFAKKUR TARBIYACHISI

Bugungi kunda ko'pchiligimiz maqtanib: "Yoshlarimiz kompyuterni yaxshi bilishadi, internet tizimidan xohlagan axborotni bir zumda olishadi", — deya ko'p gapiramiz. Aslida-chi, to'g'ri, yoshlarimiz kompyuter rivojlangan asrda yashashyapti, xorijlarda ta'lim olishyapti. Asosiy bilimni internet sahifalaridan olishga harakat qilishyapti. Internet sahifalari nafaqat insoniyat aqlining mahsuli, balki ilohiy ne'mat bo'lgan kitobning o'rnini bosa olarmikan?

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi kitobxonlikni yanada rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bizni yanada quvontirayotgan bo'lsa-da, farzandlarimizga kitob o'qishni, kitobga mehr qo'yishni o'rgatishimiz mashaqqat bo'lmoqda. Kitob — bilim bulog'i. Bu buloqdan bahra olmagan inson johillikka yuz tutadi. U har qanday tubanlikka qo'l urishi, insoniylikni, vijdonini arzimagan

narsaga sotib yuborishi mumkin. Jamiyatda kitobxonlik qay darajada keng ommalashgan bo'lsa, ziyoli ahli shunchalik ko'p bo'ladi, o'z navbatida bu joyda umuminsoniy qadriyatlar barqaror turmush tarziga aylanadi. Internet qarshisida soatlab o'tiradiganlar g'araz niyatli kimsalarning domiga ilinib, qanchadan-qancha qotilliklarga qo'l urmoqdalar. Ammo kitob o'qigan inson bunday qabihliklarga qo'l urmasli-

gi aniq. Amir Temur bobomiz aytganlaridek: "Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-

idrokning, ilmu donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiydir".

Ajdodlarimiz ilm o'rganish, kitob o'qishga hamisha eng muhim vazifa sifatida qarab kelishgan. Qur'oni karimning ilk nozil bo'lgan oyati ham "O'qi" amri bo'lgan. Ota-bobolarimiz ilm o'rganish, kitob yozish va o'qish borasida butun tarix davomida boshqalarga o'rnak bo'lishgan. Tarixdan bizga ma'lumki, ilgari Yassaviy, Bedil, Fuzuliy, Maxtumquli, Mashrab g'azallarini yod bilmaslik or sanalgan. O'tmishda xorijdan yurtimizga sayohat yoki tijorat niyatida kelgan mashhur shaxslar bu yerdagi kutubxonalar va kitob do'konlarining ko'pligi, kitoblarning xilma-xilligini ko'rib hayratlanganlar. Ular yozib qoldirgan esdaliklarni varaqlasangiz, yurtimizda kitobxonlik keng yoyilgan vaqtlarda farovonlik, taraqqiyot yuksalganligining guvohi bo'lasiz.

Markaziy Osiyoda Somoniylar, Qorahoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Temuriylar, Shayboniylar kabi sulolalar hukmronligi davrida haqiqatdan ham kutubxonalar va kitob do'konlari ayniqsa, juda keng tarqalgan. Ularda nafaqat yurtimizda yetilib chiqqan allomalar, balki o'z zamonasi ilm-fanning yetuk namoyandalari asarlari mavjud bo'lgan. Fanning barcha sohalaridagi asarlar ana shu kitoblardan olingan mustahkam poydevor asosida yaratilgan. Farzandlarimizni kitob o'qishga o'rgatish bilan birga o'zimiz ota-onalar ham kitobga oshno bo'lishni unutmashimiz kerak. To'y marosimlarga qimmatbaho kiyim-u anjomlarga katta-katta mablag'larni ayamay sarflaymiz-u, farzand tarbiyasi uchun zarur bo'lgan qalb va tafakkur tarbiyachisi bo'lgan kitobni olishni xayolimizga ham keltirmaymiz?! Zero, barkamol avlodlarni o'stirib voyaga yetkazish har qanday jamiyat, shu jumladan, o'zbek xalqining ham azaliy orzusidir.

Nargiza VALIYEVA,
Sharof Rashidov tuman axborot-kutubxona markazining axborot-bibliografiya xizmati rahbari.

MTTda bayram



Baxtli bolalikning jarangdor sadosi

1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya